# XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
# Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-153-12-0-K/25 Xorazm viloyati

## Xorazm viloyati bo‘yicha 2026-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalariga, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarning 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdori, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar, noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 383, 412, 422, 429, 437, 445 va 452-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xati, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

**Qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Xorazm viloyatida yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 42,4 mln. so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 377,0 so‘m, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda viloyatning tumanlarida ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun 1,39 mln. so‘m minimal miqdor belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat soliq boshqarmasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman (shahar)lar bo'yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig'i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash hamda tumanlardagi yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkalari bo'yicha tuman (shahar)lar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar, noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlari bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha tuman (shahar)lar kesimida yer solig'i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar 1-ilovaga muvofiq;

yuridik shaxslar bo'yicha mol-mulk soliqlari uchun qo'llaniladigan (minimal qiymat) mutlaq miqdorlar 2-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkalari bo'yicha tuman (shahar)lar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 4-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 5-ilovaga muvofiq;

soliq solish maqsadida qo'llaniladigan ko'chmas mulk ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun o'rnatilayotgan minimal miqdorlar 6-ilovaga muvofiq;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha tuman (shahar)lar kesimida yer solig'i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari shahar (tuman)lar Kengashlarining mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, 1-ilovaga asosan qo'llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlari tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar

uchun 2026-yilda belgilangan yer soliq stavkalarining hududlardagi soliq organlariga taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Viloyat soliq boshqarmasi hamda hududiy soliq organlari 2026-yil uchun yuridik shaxslarning (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari) mol-mulkiga solinadigan soliqning ushbu qaror bilan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-030-12-0-K/24-sonli qarori 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi**

**RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH**

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-153-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha tuman (shahar)lar kesimida yer soligʻi stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar**

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari, 1 ga uchun | | Jismoniy shaxslar boʻyicha, 1 kv.metr uchun *(turar joylar uchun belgilangan oʻsish meʼyoridan oshmagan holda)* | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha) | Yer soligʻi stavkasi 2026-yil uchun (ming soʻmda) | Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha) | Yer soligʻi stavkasi 2026-yil uchun (soʻmda) |
| 1 | Urganch shahri | 1,74 | 73 776,0 | 1,81 | 682,37 |
| 2 | Xiva shahri | 1,42 | 60 208,0 | 1,25 | 471,25 |
| 3 | Urganch tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 4 | Xiva tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 5 | Hazorasp tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 6 | Gurlan tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 7 | Shovot tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 8 | Yangiariq tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 9 | Qoʻshkoʻpir tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 10 | Bogʻot tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 11 | Xonqa tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |
| 12 | Yangibozor tumani | 1,12 | 47 488,0 | 1,12 | 422,24 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 13 | Tuproqqal'a tumani | 1,00 | 42 400,0 | 0,86 | 324,22 |

***Izoh:*** *xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlari jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-153-12-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlar**

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Koeffitsiyent | Mutlaq miqdor (soʻmda) |
|---|---|---|---|
| 1 | Urganch shahri | 1.00 | 2 350 000 |
| 2 | Xiva shahri | 1.00 | 1 390 000 |
| 3 | Urganch tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 4 | Xiva tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 5 | Hazorasp tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 6 | Gurlan tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 7 | Shovot tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 8 | Yangiariq tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 9 | Qoʻshkoʻpir tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 10 | Bogʻot tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 11 | Xonqa tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 12 | Yangibozor tumani | 1.00 | 1 390 000 |
| 13 | Tuproqqalʼa tumani | 0.80 | 1 112 000 |

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-153-12-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman (shahar)lar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlar**

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Koeffitsiyent* | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek, boshqa imoratlar, binolar va inshootlar | 200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan | 500 kv.m dan ortiq bo‘lgan | Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari | Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari |
| 1 | Urganch shahri | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 2 | Xiva shahri | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 3 | Urganch tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 4 | Xiva tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 5 | Hazorasp tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 6 | Gurlan tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 7 | Shovot tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 8 | Yangiariq tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 9 | Qoʻshkoʻpir tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 10 | Bogʻot tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 11 | Xonqa tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 12 | Yangibozor tumani | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,30 | 1,0 |
| 13 | Tuproqqalʼa tumani | 1,30 | 1,30 | 1,10 | 1,30 | 1,0 |

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-153-12-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar**

*(qishloq xoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)*

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YTTlar | | Sanoat korxonalari | | Avtotransport vositalarini yuvish | | Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yer usti | Yer osti | Yer usti | Yer osti | Yer usti | Yer osti | Yer usti | Yer osti |
| 1 | Urganch shahri | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 2 | Xiva shahri | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 3 | Urganch tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 4 | Xiva tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 5 | Hazorasp tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 6 | Gurlan tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 7 | Shovot tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 8 | Yangiariq tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 9 | Qoʻshkoʻpir tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 10 | Bogʻot tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 11 | Xonqa tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 12 | Yangibozor tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |
| 13 | Tuproqqalʼa tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.0 | 1.0 | 1.2 | 1.2 |

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-153-12-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar***

| **T/r** | **Tuman (shahar)lar nomi** | **Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabazporfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin** | **Tabiiy bezaktoshdan bloklar** | **Marmar** | **Granitlar** | **Gips toshi, gips va angidrid, ganch** | **Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar** | **Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Urganch shahri | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 2 | Xiva shahri | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | Urganch tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 4 | Xiva tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 5 | Hazorasp tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 6 | Gurlan tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 7 | Shovot tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 8 | Yangiariq tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 9 | Qoʻshkoʻpir tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 10 | Bogʻot tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 11 | Xonqa tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 12 | Yangibozor tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |
| 13 | Tuproqqalʼa tumani | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 | 1.2 |

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-153-12-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**Soliq solish maqsadida qoʻllaniladigan koʻchmas mulk ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun oʻrnatilayotgan minimal miqdorlar***

soʻmda

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | 1 kv.metr turar joylar uchun minimal qiymat | Qoʻllash taklif etilayotgan koeffitsiyent | 1 kv.metr turar joylarning yakuniy narxi | 1 kv.metr noturar joylar uchun minimal qiymat | Qoʻllash taklif etilayotgan koeffitsiyent | 1 kv.metr noturar joylarning yakuniy narxi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Urganch shahri | 14 500 | 1,00 | 14 500 | 28 400 | 1,00 | 28 400 |
| 2 | Xiva shahri | 5 900 | 2,00 | 11 800 | 11 800 | 2,00 | 23 600 |
| 3 | Urganch tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 4 | Xiva tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 5 | Hazorasp tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 6 | Gurlan tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 7 | Shovot tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 8 | Yangiariq tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 9 | Qoʻshkoʻpir tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 10 | Bogʻot tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 11 | Xonqa tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 12 | Yangibozor tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |
| 13 | Tuproqqalʼa tumani | 5 900 | 1,27 | 7 500 | 11 800 | 1,27 | 15 000 |

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-153-12-0-K/25 -son qaroriga
7-ilova

**Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman (shahar)lar kesimida yer soligʻi stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar**

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Koeffitsiyent |
|---|---|---|
| 1 | Urganch shahri | 1.2 |
| 2 | Xiva shahri | 1.2 |
| 3 | Urganch tumani | 1.2 |
| 4 | Xiva tumani | 1.2 |
| 5 | Hazorasp tumani | 1.2 |
| 6 | Gurlan tumani | 1.2 |
| 7 | Shovot tumani | 1.2 |
| 8 | Yangiariq tumani | 1.2 |
| 9 | Qoʻshkoʻpir tumani | 1.2 |
| 10 | Bogʻot tumani | 1.2 |
| 11 | Xonqa tumani | 1.2 |
| 12 | Yangibozor tumani | 1.2 |
| 13 | Tuproqqalʼa tumani | 1.2 |